O‘ZBEK ADABIYOTIDA EPISTOLYAR SHAKLNING O‘RGANILISHI

Jo’rayeva Risolatxon Bekmurod qizi
Farg’ona davlat universiteti
Magistratura bo’limi
Adabiyotshunoslik: o’zbek adabiyoti
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada jahon va o‘zbek adabiyotida epistolyar janrning shakllanishi, taraqqiyoti hamda uning badiiy-estetik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, epistolyar romanning dialogik tabiati, qahramon ruhiyatini ochishdagi o‘rni va ijtimoiy voqelikni ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi. Iogann Volfgang fon Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” hamda Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlari misolida janrning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, Ibrohim G‘ofurovning qarashlari asosida maktub janrining milliy adabiyotdagi o‘rni, uning tarbiyaviy va estetik ahamiyati asoslab beriladi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются формирование и развитие эпистолярного жанра в мировой и узбекской литературе, а также его художественно-эстетические возможности. Особое внимание уделяется диалогической природе эпистолярного романа, его роли в раскрытии внутреннего мира героя и отражении социальной действительности. На примере романов Иоганна Вольфганга фон Гёте «Страдания юного Вертера» и Икбола Мирзо «Бону» анализируются идейно-художественные особенности жанра. Также на основе взглядов Иброхима Гафурова обосновывается значение эпистолярного жанра в национальной литературе, его воспитательная и эстетическая роль.*

Kalit so‘zlar: *epistolyar janr, epistolyar roman, maktub, badiiy tasvir, lirik qahramon, dialogizm, psixologizm, ijtimoiy voqelik.*

Ключевые слова: *эпистолярный жанр, эпистолярный роман, письмо, художественное изображение, лирический герой, диалогизм, психологизм, социальная действительность.*

Jahon adabiyotida epistolyar janr uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, u inson ruhiyati va ijtimoiy voqelikni badiiy ifodalashning o‘ziga xos shakllaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, epistolyar roman shakli muallif va qahramon “meni” o‘rtasidagi bevosita aloqani ta’minlab, voqealarni ichki nigoh orqali tasvirlash imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur janr nafaqat badiiy-estetik, balki psixologik tahlil imkoniyatlari bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotshunoslikda epistolyar asarlarning nazariy asoslari, ularning genezisi va badiiy xususiyatlari jahon ilmiy tafakkurida keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, milliy adabiyotimizda bu boradagi tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Shu bois epistolyar janrning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida e’tibor qozonadi. Jahon adabiyotida badiiy epistolyar asarlar yaratish tajribasi uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Shunga ko‘ra, bu xildagi asarlarga oid ilmiy tadqiqotlar ham talaygina. Rus adabiyotshunosligida, badiiy epistolyar asarlar genezisi akademik D.Lixachyov tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, epistolyar romanning atributi bo‘lmish dialogizmga oid qarashlar M.Baxtin, N.Tamarchenko, Y.Tinyanov kabi romanshunoslar ishlarida uchraydi. Milliy adabiyotimizda esa epistolyar adabiyot masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar kam. Maxsus dissertatsiya sifatida tadqiqotlar ko‘p bo‘lmasa-da, munshaot, xat, noma haqida adabiyotshunoslar, professorlar o‘z fikrlarini ilmiy asarlarida, maqola va risolalarida bayon etishgan. Masalan Bozorov Orif CHamanovich “Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi

(Iogann Volfgang Fon Gyotening “Yosh Veterning iztiroblari” hamda Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlari misolida)”[1] mavzusi bo'yicha Phd dissertatsiyasini himoya qilgan, Ibrohim G‘ofurov “Dil erkinligi” kitobining “Dilpisand (Maktublarda Navoiy siymosi)” Dusmuratovning keyingi “O‘zbek epistolyar nasrining shakllanishi va taraqqiyot yo‘llari”, “O‘zbek epistolyar nasrida badiiy psixologizm” va yana bir qancha tadqiqotchilarning maqolalarini keltirishimiz mumkin.

Bugungi kunda Bozorov Orif CHamanovich “Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi (Iogann Volfgang Fon Gyotening “Yosh Veterning iztiroblari” hamda Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlari misolida)”[2] mavzusi bo'yicha Phd dissertatsiyasini himoya qilgan. Mazkur tadqiqotda epistolyar roman janrining badiiy imkoniyatlari, xususan, unda tarixiy-ijtimoiy voqelik hamda inson ruhiy kechinmalarining tasvirlanish xususiyatlarini ochib bergan. Bu ishda epistolyar shakl voqealarni “men” nuqtayi nazaridan bayon etish orqali qahramon ichki olamini chuqur ochish, ijtimoiy muhitga bo‘lgan munosabatni bevosita va tabiiy ifodalash imkonini berishi ilmiy jihatdan asoslangan. Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romanida epistolyar shakl yordamida sentimental ruhdagi muhabbat iztiroblari bilan bir qatorda XVIII asr Yevropa jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalanish muammolari badiiy talqin etilgan. Bundan tashqari, Verter fojeasining ildizi faqat javobsiz muhabbatda emas, balki qahramonning erkinlikka intilgan ruhi bilan jamiyatdagi qat’iy ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar, qahramon maktublari orqali ijtimoiy muhitga nisbatan bildirilgan kuzatuv va mulohazalar asarning g‘oyaviy-badiiy qatlamini boyitganligini mazkur ishda juda chiroyli tarzda ochilgan . Iqbol Mirzoning “Bonu” romani esa epistolyar shaklda yozilgan bo‘lishiga qaramay, realistik

[1] Bozorov Orif CHamanovich “Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi (Iogann Volfgang Fon Gyotening “Yosh Veterning iztiroblari” hamda Iqbol Mirzoning “Bonu” romanlari misolida)”

uslubga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Asarda bir ayol taqdiri fonida millat hayotining muayyan tarixiy davriga oid ijtimoiy voqeliklar keng yoritiladi. Bonuning shaxsiy kechinmalari, oilaviy-maishiy hayoti va muhabbat bilan bog‘liq iztiroblari ijtimoiy muammolar bilan uzviy bog‘lanib, epistolyar janr imkoniyatlarining milliy adabiyotdagi o‘ziga xos ko‘rinishini namoyon etadi. Tadqiqotda har ikki romanda muhabbat, yolg‘izlik va xudkushlik motivlarining epistolyar shakl orqali turlicha badiiy yechim topgani asoslab berilgan. “Yosh Verterning iztiroblari” romanida sentimentalizm ta’sirida muhabbat va yolg‘izlik qahramonni xudkushlikka olib keluvchi omil sifatida namoyon bo‘lsa, “Bonu” romanida ushbu motivlar realistik yo‘sinda talqin qilinib, ijtimoiy voqelikni anglash va shaxsiy yetilish jarayoniga xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, epistolyar roman janri inson ruhiyati va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni badiiy tadqiq etishda muhim estetik imkoniyatlarga ega. Gyote va Iqbol Mirzo romanlari misolida epistolyar shaklning jahon va milliy adabiyotdagi taraqqiyot bosqichlari, janrning g‘oyaviy-badiiy salohiyati va uning zamonaviy talqinlari yaqqol namoyon bo‘lganligi.

Ibrohim G‘ofurov “Dil erkinligi” kitobining “Dilpisand (Maktublarda Navoiy siymosi)” bobida maktub haqida juda qimmatli ma’lumotlar keltirgan. Uning ta’kidlashicha, Sharqda maktub yozish Yevropadagi kabi keng urfga aylanmagan, noma dastlab Sharqda paydo bo‘lib, janr sifatida shakllanganiga qaramay, xalq orasida ommalashmagan va shu bilan birga, xatlarni saqlash va nashr etish ishlari ibtidoiy shaklda qolganligi haqida fikr bildirgan. Maktub insonni tafakkur qilishga, dunyoqarashini kengaytirishga o‘rgatadi. Maktub yozishga e’tiborsizlik bilan qarash, dangasalik hamda ijtimoiy turmushdagi turli vaziyatlar oqibatida xalqning qo‘li yozishmadan chiqib ketdi. Natijada maktubga bo‘lgan munosabat susaydi va uning tarbiyaviy hamda fikrlashga o‘rgatuvchi ahamiyati yetarlicha qadrlanmay qoldi, nasriy janrlarning rivojlanmasiga ham yuqoridagi fikrlarni sabab qilib ko‘rsatadi. Professor

Navoiyning “Munshaot”i yaratilishi haqida: ”Navoiy bizning elimiz ham fors eli kabi go‘zal va bexato insholar yoza olishini istab “Munshaot”ni yaratdi va bu yo‘lda o‘zi birinchi bo‘lib poydevor qo‘ydi” . Navoiyning maktublari asosan Temuriy shahzodalarga bitilgan bo‘lib, ular orqali Navoiyning naqadar ulug‘vor va fozil inson ekani ayon bo‘ladi. Shuningdek, bu xatlardan u yashagan davrdagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatlardan chuqur qayg‘urganini ko‘rish mumkin. Olim asosiy e’tiborni Navoiy xatlarida uning siymosi qanday gavdalangani, shuningdek ijtimoiy va madaniy qarashlari qanday ifodalanganiga qaratadi. Bu yondashuvdan kelib chiqib aytish mumkinki, G‘ofurov Navoiy maktublari orqali o‘z “men”ini yashirmaydi, aksincha, uni yanada aniqroq ochib beradi. Ayniqsa, uning Badiuzzamonga yo‘llagan xatlarida muloyim ohang, hikmatli nasihat va psixologik noziklik uyg‘unlashgan holda o‘sha davrdagi vaziyat shahzodaga og‘ir botmaydigan tarzda yetkaziladi. Bu esa maktubning nafaqat axborot yetkazish, balki inson ruhiyatiga ta’sir etish, uni tarbiyalash vositasi ekanini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, G‘ofurov bu kitobida “Munshaot” asari haqida qisqacha to’xtalgan bo‘lsada, Navoiyning xatlarini tarixiy, ijtimoiy va badiiy qatlamlarni uyg‘unlashtirib yuqori saviyada tahlil qildi. Uning qarashlari asosida maktubni fikrni shakllantiruvchi, shaxsni tarbiyalovchi va badiiy ifodaning muhim vositasi sifatida baholash mumkin. U nafaqat tarixiy-adabiy merosda, balki zamonaviy adabiyotda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan janr sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bozorov, O. Ch. Epistolyar romanda voqelikni badiiy tasvirlash imkoniyatlari va qahramon muammosi (I.V. Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” hamda I. Mirzoning “Bonu” romanlari misolida): PhD dissertatsiyasi.
2. G‘ofurov, I. Dil erkinligi. – Toshkent.

3. Dusmuratov, X. O‘zbek epistolyar nasrining shakllanishi va taraqqiyot yo‘llari.
4. Dusmuratov, X. O‘zbek epistolyar nasrida badiiy psixologizm.
5. Gyote, I. V. Yosh Verterning iztiroblari.
6. Mirzo, I. Bonu.
7. Lixachyov, D. Qadimgi rus adabiyoti poetikasi (epistolyar janr genezisi haqida).
8. Baxtin, M. Nutq janrlari va dialogizm muammolari.
9. Tamarchenko, N. Adabiy janrlar nazariyasi.
10. Tinyanov, Y. Adabiy evolyutsiya muammolari.